

LINGUOCULTURAL ASPECTS OF LEXICAL UNITS DENOTING MILITARY RANKS IN ENGLISH AND UZBEK

Ismailov Abdurashid Isakovich

Associate Professor at ADCHTI

Abstract

This article is devoted to the lexical units denoting military ranks in the English and Uzbek languages, their origins, and their similarities and differences. The purpose of the article is to demonstrate that, from a linguocultural perspective, lexical units denoting military ranks in English and Uzbek are not merely terminological units indicating the military hierarchy, but can also acquire metaphorical meanings in everyday speech and serve as means of expressing various social and cultural relations.

Keywords

military terminology, military rank, hierarchical level, linguocultural unit, military system, comparative analysis.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA HARBIY UNVONLARNI IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY JIHATLARI

Ismailov Abdurashid Isakovich, ADCHTI dotsenti.

Annotatsiya: Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillarida harbiy unvonlarni ifodalovchi leksik birliklar va ularning kelib chiqishi, ularning o‘xshash hamda farqli jihatlari masalasiga bag‘ishlanadi. Tanlangan maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida harbiy unvonlarni ifodalovchi leksik birliklar lingvomadaniy jihatdan faqat harbiy iyerarxiyani bildiruvchi terminologik birliklar emas, balki kundalik nutqda ham metaforik mazmun kasb etib, turli ijtimoiy va madaniy munosabatlarni ifodalovchi vosita sifatida qo‘llanishini namoyish etishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *harbiy terminologiya, harbiy unvon, ierarxik pog‘ona, lingvomadaniy birlik, harbiy tizim, qiyosiy tahlil*

Harbiy terminlar, xususan harbiy unvonlarni ifodalovchi leksik birliklar nafaqat muayyan lavozim yoki iyerarxik pog‘onani bildiruvchi terminlar sifatida, balki xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy tuzilishi va harbiy madaniyatini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar sifatida ham namoyon bo‘ladi. Turkiy va ingliz harbiy unvonlarini qiyosiy tahlil qilish ushbu birliklarning semantik va funksional jihatdan o‘xshash hamda farqli tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Tarixiy manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, VI–VIII asrlarda qadimgi turkiy jamiyatning harbiy tizimida eng yuqori martabali qo‘mondon va davlat boshlig‘i “xoqon” nomi bilan atalgan. U harbiy yurishlar hamda jangovar harakatlar davomida siyosiy hokimiyatning mustahkamlanishida muhim rol o‘ynagan, bosqin va g‘alabalarni tashkil etgan hamda aynan harbiy qo‘mondonlik mavqei orqali hokimiyatni qo‘lga kiritgan shaxs sifatida tavsiflangan.¹ Qadimgi turkiy jamiyatda “Qag‘an”² unvoni davlatning oliy hukmdori va bosh qo‘mondoni sifatida siyosiy hamda harbiy hokimiyatni o‘zida mujassam etgan. Ushbu unvon markazlashgan boshqaruv tizimining eng yuqori pog‘onasini ifodalab, hokimiyatning harbiy kuch bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ingliz harbiy-siyosiy tizimida bunga qisman monarx — qirol yoki qirolicha (Commander-in-Chief) maqomi mos keladi, chunki tarixan Britaniya monarxi qurolli kuchlarning oliy bosh qo‘mondoni hisoblangan, biroq amaliy harbiy boshqaruv keyinchalik hukumat va professional harbiy rahbarlarga o‘tgan. Bu holat turkiy tizimda siyosiy va harbiy hokimiyatning birlashganligini, ingliz tizimida esa ularning institut sifatida ajralib borishini ko‘rsatadi.³ “Yabg‘u”⁴ unvoni turkiy davlat boshqaruvida hukmdorning o‘rinbosari yoki yirik hudud boshqaruvchisi sifatida harbiy va ma’muriy vakolatlarni amalga oshirgan. U sulolaviy aristokratiya vakili bo‘lib,

¹ Бернштам А.Н. Социально-экономический строй орхон-енисейских тюрок VI-VIII вв. Академия наук СССР. –М.: Л. 1946. – С.108.

² Dadaboyev H. O‘zbek harbiy terminologiyasi — Toshkent: Shakhof 2021. –BB 7–9

³ Clauson, An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish, Oxford University Press, 1972, pp. 611–615; Keegan, A History of Warfare, Vintage Books, 1993, pp. 273–275

⁴ Dadaboyev H. O‘zbek harbiy terminologiyasi — Toshkent: Shakhof 2021. –BB 7–9

hokimiyatning nasliy asosda shakllanganini ifodalaydi. Ingliz harbiy tizimida bu maqomga ma'lum darajada "General" yoki "Lieutenant General" lavozimlari yaqin turadi, chunki ular yirik harbiy tuzilmalarni boshqaradi, ammo ular nasliy emas, balki professional asosda tayinlanadi. Shunday qilib, turkiy tizim aristokratik xarakterga ega bo'lsa, ingliz tizimi meritokratik tamoyillarga asoslanganini ko'rish mumkin.⁵ "Shad"⁶ unvoni Ko'kturk davrida viloyatlar yoki qanot qo'shinlari boshlig'i sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, odatda xoqon urug'iga mansub shahzodalar tomonidan egallangan. Bu unvon harbiy boshqaruvning sulolaviy nazorat ostida bo'lganini va siyosiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilganini anglatadi. Ingliz harbiy tizimida bunday vazifaga "Major General" yoki "Brigadier" kabi unvonlar mos keladi, ular ham ma'lum hududiy yoki operativ birliklarni boshqaradi, biroq kelib chiqishi ijtimoiy tabaqaga emas, balki xizmat va malakaga bog'liq. Demak, turkiy tizimda hokimiyat yopiq elitaga xos bo'lgan bo'lsa, ingliz tizimida ochiq professional ierarxiya ustuvorlik qiladi.⁷ Al-Xorazmiyning "Mafotih ul-ulum" asarida o'g'uz va qarluqlar hukmdori "jabbuya", ya'ni "yabg'u" nomi bilan yuritilgani haqida ma'lumotlar qayd etilgan.⁸ G'arbiy Turk xoqonligi davrida "shad" leksemasi eng yuqori harbiy-ma'muriy martabalardan birini ifodalovchi nom sifatida qo'llangan.⁹ Shad unvoni xoqondan keyingi to'rtinchi martaba hisoblangan bo'lib, tegin (taxt vorisi) va yabg'u kabi qon-qarindoshlik jihatidan shahzodalar maqomiga tenglashtirilgan. Shad lavozimini egallagan shaxs tardush xalqini boshqargan hamda maxsus saralangan qo'shinga qo'mondonlik qilgan.¹⁰ "Suboshi"¹¹ unvoni qo'shin boshlig'i yoki sarkarda sifatida amaliy harbiy boshqaruvni

⁵ Golden, An Introduction to the History of the Turkic Peoples, Otto Harrassowitz, 1992, pp. 121–123; Black, Eighteenth-Century Britain 1688–1783, Palgrave Macmillan, 2001, pp. 85–87

⁶ Dadaboyev H. O'zbek harbiy terminologiyasi — Toshkent: Shahhof 2021. –BB 7–9

⁷ Sinor, The Cambridge History of Early Inner Asia, Cambridge University Press, 1990, pp. 285–287; Holmes, Redcoat: The British Soldier in the Age of Horse and Musket, HarperCollins, 2001, pp. 142–145

⁸ Qarang. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1. VII-XV вв. Академия наук СССР. –М.: Л., 1939. – С. 219.

⁹ Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии. Наука. –М.: Л., 1959. – С. 28.

¹⁰ Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Академия наук СССР. –М.: Л., 1951. – С. 17.

¹¹ Dadaboyev H. O'zbek harbiy terminologiyasi — Toshkent: Shahhof 2021. –BB 7–9

amalga oshirgan. Ushbu lavozim doimiy ravishda sulolaga bog‘liq bo‘lmaganligi bilan ajralib turadi va professional harbiy rahbarlik institutining shakllanganini ko‘rsatadi. Ingliz harbiy tizimida bu maqomga “Colonel” yoki “Captain” kabi unvonlar muvofiq keladi, chunki ular bevosita harbiy birliklarni boshqaradi va jangovar operatsiyalarda yetakchi rol o‘ynaydi. Bu o‘xshashlik har ikkala tizimda ham amaliy harbiy boshqaruv uchun alohida professional qatlam mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi.¹² “Beg (Bek)”¹³ unvoni turkiy jamiyatda harbiy va ma’muriy rahbar sifatida kichik hudud yoki qo‘shin boshqaruvini amalga oshirgan va ierarxiyaning o‘rta-yuqori pog‘onasiga mansub bo‘lgan. Bu unvon ijtimoiy tabaqalanish va mahalliy boshqaruv tizimining rivojlanganini ko‘rsatadi. Ingliz tizimida bunga “Lieutenant” yoki “Captain” kabi o‘rta bo‘g‘in ofitserlari mos keladi, ular ham mahalliy darajada boshqaruvni ta’minlaydi. Shu bilan birga, ingliz tizimida bu lavozimlar qat’iy xizmat pillapoyasiga asoslangan bo‘lib, ijtimoiy kelib chiqish ikkilamchi ahamiyat kasb etadi.¹⁴ “Sipoh” so‘zi A. Madvaliyev¹⁵ tahriri ostida nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi: Sipoh — harbiy birlashma; qo‘shin, armiya. 1) Podshoh, xon, amir saroyida uzoq xizmat qilgan lavozimli kishi; amaldor. *Sipohning onasi bo‘lmas. Maqol. — Eshikni qiya ochib, notanish kishilarga sovuq nazar tashlagan, nozlari g‘umori uy egasi sipohlarga xos gururkorlik bilan «Xizmat?» degandek qaradi.* Mirmuhsin, *Me’mor*. 2) Jangchi, askar. *Dehqon bo‘lsang — qovunda, sipoh bo‘lsang — boshingda.* Maqol. — *Qilich sinib, qalqoni teshilgan sipohlardek, ona-bola kitob-daftarlarini ko‘tarib bog‘ darvozasi tomon yurisha boshladi.* Mirmuhsin, *Umid. Muhammad Rahimxon uy egnida saft tortgan sipohlarga qarab bosh chayqadi.* S. Siyoev, *Yeruqlik*. 3) Shaxmat o‘yinida: piyodadan

¹² Clauson, 1972, pp. 781–783; Strachan, *The British Army: Manpower and Society into the Twenty-First Century*, Routledge, 2000, pp. 56–59

¹³ Dadaboyev H. O‘zbek harbiy terminologiyasi — Toshkent: Shahhof 2021. –BB 7–9

¹⁴ Golden, 1992, pp. 135–137; French, *Military Identities: The Regimental System, the British Army, and the British People*, Oxford University Press, 2005, pp. 98–101

¹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А.Мадвалиев тахр. ост. – Тошкент: “Ўзбекистон нашриёти” давлат унитар корхонаси, 2020.-b.519

katta donalar (fil, ot, rux, farzin). *Bir piyodaga bir sipohni qurbon bermoq.* 4) Ko‘chma ayn. *sipo.* — *Qachondan beri sipoh bo‘lib qolding? — ta‘nok qildi boshliq.* Shuxrat, *Shinelli yillar. Shernazarboy hamadan sipoh ko‘ringan edi.* J. Sharipov, *Xorazm.* “Sipohsolor” – bosh qo‘mondon, qo‘shin yetakchisi. Bu unvon fors-tojik manbalaridan kirib kelgan bo‘lib, yirik qo‘shin boshlig‘i, ya‘ni yuqori harbiy elita vakilini anglatadi. Bu unvon o‘zbek harbiy terminologiyasining ko‘p qatlamli va ochiq tizim ekanini, tashqi madaniy ta‘sirlar muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Masalan: *Xiva xonligida jami otliq va piyoda qo‘shinga sipohsolor qo‘mondonlik qilgan.*¹⁶ Ingliz harbiy tizimida bunga eng yaqin muqobil “General” yoki “Field Marshal” unvonlari bo‘lib, ular strategik darajadagi harbiy boshqaruvni amalga oshiradi. Biroq ingliz tizimida bu unvonlar milliy harbiy an‘ana doirasida shakllangan bo‘lsa, “Sipohsolor”ning mavjudligi turkiy-hududiy harbiy tizimlarning interkultural aloqalar natijasida boyiganini anglatadi.¹⁷ O‘zbek tilidagi “yasovul” — O‘rta Osiyo xonliklari davrida: yuqori mansabdagi amaldorlarga xizmat qiluvchi qurolli soqchi, posbon. Masalan: Tohir xona qarab yugurdi, yasovullar uning orqasidan kelib, bo‘yniga sirtmoq tashlab, bog‘ladilar. “Yasovulboshi” — yasovullar boshlig‘i. Masalan: Podshoh dono vazirlariga, yasovulboshilariga podsho o‘tirgan joyga «o‘tiringlar», deb joy ko‘rsatdi.¹⁸ Shunga ko‘ra qaysi bir vaqtlarda o‘rda yasovullari Yusufbek hojining eshigiga arava ko‘ndalang qilib “o‘rda begi oyim buyurdilar”, deb O‘zbek oyimning yasanib chiqishini kutar edilar.¹⁹ Umuman olganda, turkiy va ingliz harbiy unvonlari o‘rtasidagi qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikkala tizimda ham ierarxik tuzilma va harbiy boshqaruvning funksional bo‘linishi mavjud bo‘lsa-da, turkiy tizimda sulolaviy-

¹⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А.Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: “Ўзбекистон нашриёти” давлат унитар корхонаси, 2020.-b.519

¹⁷ Bosworth, *The Ghaznavids*, Edinburgh University Press, 1963, pp. 102–104; Keegan, 1993, pp. 301–303

¹⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А.Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: “Ўзбекистон нашриёти” давлат унитар корхонаси, 2020.-b.122

¹⁹ Qodiriy A. *O‘tgan kunlar.* — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1994. — B.72

aristokratik tamoyillar ustuvor bo'lgan, ingliz tizimida esa professional va meritokratik yondashuv rivojlangan. Bu esa harbiy terminologiyaning nafaqat lingvistik, balki chuqur ijtimoiy-madaniy mazmunga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Markaziy Osiyo hududida, jumladan Qo'qon xonligi davrida shakllangan an'anaviy harbiy boshqaruv tizimi keyinchalik tashqi siyosiy kuchlar ta'sirida sezilarli darajada o'zgarishga uchragan. Chor Rossiyasi tomonidan hududning bosib olinishi natijasida harbiy va ma'muriy tizimlar qayta tashkil etilib, mahalliy unvon va lavozimlar asta-sekin imperiya standartlariga moslashtirila boshlagan. Bu jarayonda an'anaviy turkiy unvonlarning bir qismi iste'moldan chiqib, ularning o'rnini rus harbiy terminologiyasiga mansub yangi birliklar egallagan.²⁰ Keyingi bosqichda esa sobiq Sovet Ittifoqi davrida harbiy soha yanada markazlashgan va standartlashtirilgan tizimga o'tdi. Sovet harbiy doktrinasi asosida barcha ittifoq respublikalarida yagona unvonlar tizimi joriy etilib, u rus tilidagi terminologiya bilan mustahkamlandi. Natijada, ilgari mavjud bo'lgan milliy va tarixiy harbiy unvonlar deyarli to'liq ravishda amaliy qo'llanilishdan chiqdi yoki faqat tarixiy-madaniy kontekstda saqlanib qoldi. Bu holat harbiy terminologiyaning ideologik va siyosiy vosita sifatida ham xizmat qilganini ko'rsatadi.²¹ Yuqoridagi jarayonlar natijasida bugungi kunda O'zbekiston harbiy tizimida qo'llanilayotgan unvonlar va terminlarning katta qismi aynan ushbu tarixiy o'zgarishlarning mahsuli sifatida shakllangan. Ya'ni, yuqorida qayd etilganidek, dastlabki turkiy harbiy unvonlar tizimi o'zining lingvomadaniy asoslari bilan muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa-da, keyingi davrlarda tashqi siyosiy va madaniy ta'sirlar natijasida sezilarli transformatsiyaga uchragan va hozirgi kungacha ularning aksariyati modernizatsiyalashgan shaklda amal qilib kelmoqda. Shu jihatdan, zamonaviy harbiy

²⁰ Khalid, *Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR*, Cornell University Press, 2015, pp. 24–27; Morrison, *Russian Rule in Samarkand 1868–1910*, Oxford University Press, 2008, pp. 63–66

²¹ Galeotti, *The Modern Russian Army 1992–2016*, Osprey Publishing, 2017, pp. 8–10; Reese, *The Soviet Military Experience*, Routledge, 2000, pp. 112–115

terminologiya ko‘p qatlamli tarixiy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan murakkab lingvomadaniy tizim sifatida baholanishi mumkin. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarni qiyosiy tahlil qilish ushbu terminlarning turli madaniy kontekstlarda qanday lingvomadaniy mazmun kasb etishini aniqlash imkonini beradi. Masalan, ingliz adabiyotida harbiy unvonlar ko‘pincha harbiy muhitdagi ijtimoiy munosabatlar, hazil-mutoyiba yoki askarlar o‘rtasidagi norasmiy kommunikatsiya bilan bog‘liq holda qo‘llanadi: *“In order to cheer him up a bit I tell him a few stories, soldiers' jokes and the like, about generals and sergeant-majors.”* Ushbu jumlada *generals* va *sergeant-majors* terminlari askarlar o‘rtasida keng tarqalgan harbiy hazil va latifalarning obyekti sifatida qo‘llangan. Lingvomadaniy jihatdan bu holat ingliz harbiy madaniyatida yuqori lavozimli harbiylar ham askarlarning og‘zaki folklorida hazil obraziga aylanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa harbiy iyerarxiyaning mavjudligiga qaramay, askarlar o‘rtasida muayyan norasmiy kommunikatsiya madaniyati shakllanganini anglatadi. O‘zbek harbiy muhitida ham askarlar yoki harbiy xizmatchilar haqida turli latifalar aytilishi kuzatiladi, bu esa harbiy hayot bilan bog‘liq og‘zaki madaniyat unsurlarining mavjudligini ko‘rsatadi. Boshqa bir ingliz misolida serjant-mayor (starshina)ning askarlar hayotidagi roli quyidagicha ifodalanadi: *“The sergeant-major looks after us like a mother.”*²² Bu jumlada *sergeant-major* termini lingvomadaniy jihatdan askarlar hayotidagi tarbiyaviy va nazorat qiluvchi rol bilan bog‘liq konseptni ifodalaydi. Ingliz harbiy madaniyatida serjant-mayor askarlarning kundalik hayoti, tartib-intizomi va tashkiliy masalalarini nazorat qiluvchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Shunga o‘xshash holat o‘zbek harbiy tizimida ham kuzatiladi. Masalan, rota *starshinasi* askarlarning moddiy ta‘minoti, kiyim-kechaklari, ovqatlanishi, gigiyena qoidalariga rioya qilishi hamda kundalik tartibini nazorat qilish bilan shug‘ullanadi. Demak, har ikki

²² Erich Maria Remarque – *All Quiet on the Western Front*. Translated from the German by A. W. WHEEN
FAWCETT CREST. P 192.

madaniyatda ham ushbu lavozim askarlar hayotida muhim tashkiliy va nazorat funksiyasini bajaradi. Ingliz harbiy muhitida iyerarxik munosabatlar ham badiiy matnlarda o‘z aksini topadi: *“A non-com can torment a private, a lieutenant a non-com, a captain a lieutenant, until he goes mad.”*²³ Mazkur jumlada *private*, *lieutenant* va *captain* terminlari harbiy iyerarxiya tizimini ko‘rsatib beradi. Lingvomadaniy nuqtai nazardan bu jumla harbiy tizimdagi qat’iy bo‘ysunuv va intizom modelini ifodalaydi. Ya’ni harbiy tashkilotda har bir lavozim yuqoridan pastga qarab boshqaruv zanjiri orqali tartibga solinadi. O‘zbek badiiy adabiyotida ham harbiy unvon terminlari harbiy muhitni tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan: - *“Shu choq kapitan Steklovning shamollagan xirqi ovozi gurilladi. Jangchilar birpasda safga tizildilar.”*²⁴

Bu misolda *kapitan* termini harbiy boshqaruv tizimida buyruq beruvchi shaxsni bildiradi va askarlar tomonidan darhol bajariladigan iyerarxik munosabatni ifodalaydi. Yana bir misolda: *“Kapitan Steklov generalni ko‘riboq sapchib o‘rnidan turdi-da, raport berish niyatida qo‘lini chakkasiga olib borgan edi, uni general to‘xtatdi.”*²⁵ Bu jumlada *general* va *kapitan* terminlari harbiy iyerarxiyaning yuqori va quyi pog‘onalarini ko‘rsatib, harbiy protokol va xizmat tartibini aks ettiradi. Harbiy muhitga xos norasmiy an‘analar ham harbiy kiyim va unvon terminlarining lingvomadaniy mazmunini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Ingliz va Amerika harbiy madaniyatida ofitserning yangi unvon olishi xizmatdagi muhim bosqich sifatida qaraladi va u ko‘pincha hamkasblar davrasida ramziy marosimlar orqali nishonlanadi. Masalan, Britaniya va AQSh armiyalarida yangi unvon olgan ofitser sharafiga *“promotion toast”* deb ataladigan norasmiy ichimlik marosimi o‘tkazilishi mumkin. Bunday marosimlarda

²³ Erich Maria Remarque – *All Quiet on the Western Front*. Translated from the German by A. W. WHEEN FAWCETT CREST. P 48.

²⁴ Ойбек. Куёш қораймас. Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси. Мукаммал асарлар тўплами. Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт. 1977. 12-бет

²⁵ Ойбек. Куёш қораймас. Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси. Мукаммал асарлар тўплами. Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт. 1977. 13-бет

ofitserlar yangi lavozimni qadah ko'tarish orqali tabriklaydilar. Bu an'ana harbiy jamoa ichidagi birdamlik, professional hamjihatlik hamda xizmatdagi muvaffaqiyatni e'tirof etishning ramziy shakli sifatida talqin qilinadi.²⁶ Tadqiqot jarayonida o'zbek harbiy sohasida faoliyat yuritgan informantdan quyidagi qiziqarli lingvomadaniy hodisa haqida ma'lumot olindi. Harbiy muhitda ofitserning navbatdagi yuqori unvonni olishi uning xizmat faoliyatidagi muhim bosqich sifatida baholanadi va odatda hamkasblar davrasida norasmiy tarzda nishonlanadi. Mazkur norasmiy marosim sobiq sovet harbiy an'analari ta'sirida shakllanganligi bilan ham izohlanadi. Bunday holatlarda yangi unvon olgan ofitser ramziy marosim sifatida qadahga o'zining yangi unvonini ifodalovchi pogon belgilarini solib, uning ustiga spirtli ichimlik quyib ichishi mumkin. Masalan, *kapitan* unvonini olgan ofitser pogonida aks etuvchi to'rtta yulduzcha, *mayor* unvonini olgan ofitser esa pogondagi bitta kattaroq yulduzcha bilan bog'liq ramziy harakatni amalga oshiradi. *General* unvonini olish bilan bog'liq marosim esa o'ziga xos lingvomadaniy xususiyatga ega. Bunday holatda qadahga yulduzcha solinmaydi, balki shampan vinosi quyilib, "За лампас", ya'ni "lampas uchun" degan so'zlar bilan qadah ko'tariladi. Bu an'ana general unvonining pogonidagi yulduzchaning metall shaklda emas, balki matoga tikilgan holda ifodalanishi bilan izohlanadi. *Lampas* esa general formasining muhim elementi bo'lib, shimning yon tomoniga tikilgan uzun qizil rangli tasma ko'rinishidagi bezak hisoblanadi. Mazkur norasmiy marosim harbiy kiyim elementlari va harbiy unvon belgilarining nafaqat rasmiy iyerarxik belgilar, balki harbiy jamoa ichidagi norasmiy madaniy ramzlar sifatida ham talqin qilinishini ko'rsatadi. Lingvomadaniy nuqtai nazardan qaralganda, bunday an'analar harbiy jamoa ichidagi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, xizmatdagi muvaffaqiyatni ramziy tarzda e'tirof etish hamda harbiy identifikatsiyani kuchaytirish vazifasini bajaradi. Shuningdek, ushbu odat o'zbek harbiy muhitida sobiq sovet harbiy tizimi davridan meros bo'lib qolgan

²⁶ Holmes, Richard. *Redcoat: The British Soldier in the Age of Horse and Musket*. London: HarperCollins.

norasmiy an'analardan biri sifatida saqlanib qolganini ham ko'rsatadi. O'zbek harbiy madaniyatining o'ziga xos jihatlaridan biri harbiy unvon bilan murojaat qilish shaklidir. O'zbek tilida harbiy xizmatchilar yuqori lavozimli harbiyga murojaat qilganda ko'pincha "o'rtoq" komponentidan foydalanadilar: *o'rtoq kapitan*, *o'rtoq polkovnik*, *o'rtoq general*. Bu an'ana sobiq sovet davridagi harbiy tizimdan meros bo'lib qolgan bo'lib, rus tilidagi *товарищ майор*, *товарищ сержант* kabi murojaat shakllari bilan bog'liq. Ingliz harbiy madaniyatida esa murojaat odatda faqat unvon orqali amalga oshiriladi (*Captain*, *Major*, *General*), Amerika harbiy tizimida esa qo'shimcha ravishda "Sir" yoki "Ma'am" shakllari ham ishlatiladi. Harbiy unvon terminlari lingvomadaniy jihatdan xalq og'zaki ijodi, iboralar va turli madaniy nutq shakllarida ham o'z aksini topadi. Bunday birliklar ko'pincha muayyan jamiyatning harbiy an'analari, qadriyatlari hamda harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini ifodalovchi lingvomadaniy belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, rus harbiy an'anasida keng tarqalgan "*Плох тот солдат, который не мечтает стать генералом*"²⁷ iborasi ("General bo'lishni orzu qilmagan askar askar emas") harbiy xizmatdagi professional o'sish, yuqori maqsad sari intilish va harbiy iyerarxiyada yuqoriga ko'tarilish istagini ifodalaydi. Mazkur ibora vaqt o'tishi bilan boshqa tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham kirib kelib, faol qo'llanila boshlagan. Shu tariqa u o'zbek tilida ham harbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish, yuqori lavozimga intilish hamda kasbiy mahoratni oshirish g'oyasini ifodalovchi lingvomadaniy birlik sifatida o'zlashtirilgan. Lingvomadaniy nuqtai nazardan qaralganda, ushbu ibora harbiy faoliyatning iyerarxik tabiati, har bir askarning yuqori lavozimga erishish istagi hamda harbiy tizimdagi martaba pog'onalari haqidagi konseptual tasavvurlarni aks ettiradi. Shuningdek, harbiy unvon terminlari kundalik nutqda ham metaforik ma'noda qo'llanib, muayyan ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi

²⁷ <https://provereno.media/blog/2021/05/13/pravda-li-chto-suvorov-skazal-ploh-tot-spdat-kotoriy-ne-zhelaet-stat-generalom/>

lingvomadaniy birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday holatlarda harbiy terminlar o‘zining bevosita nominativ ma’nosidan tashqariga chiqib, ramziy yoki ko‘chma mazmun kasb etadi. Masalan, o‘zbek madaniyatida “*general*” so‘zi ba’zan oiladagi yetakchi yoki boshqaruvchi shaxsni ifodalash uchun metaforik tarzda qo‘llanadi. Buni “*Mening qaynonam general*”²⁸ kabi iboralarda ham kuzatish mumkin. Mazkur nom bilan televideniya namoyish etiladigan ko‘rsatuv mavjud bo‘lib, unda qaynonalar va kelinlar birgalikda turli maishiy vazifalar — taom tayyorlash, mehmon kutib olish kabi jarayonlarda o‘z mahoratini namoyish etib, boshqa ishtirokchilar bilan musobaqalashadilar. Ushbu nom orqali qaynonaning oiladagi yetakchi va nazoratchi roli ramziy tarzda “*general*” unvoni bilan qiyoslanadi. Sobiq sovet davrida rus tilida suratga olingan ayrim filmlar o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilinmay, balki lingvomadaniy moslashtirish asosida nomlangan. Shunday filmlardan biri — “*Бабушка генерал*” bo‘lib, u o‘zbek tilida mazmuni va milliy mentalitet xususiyatlaridan kelib chiqib “*Suyunchi*” nomi bilan ifodalangan. Xuddi shunday lingvomadaniy hodisa film matnida ham kuzatiladi. Xususan, qahramon Shermatning “*Yo‘q, men general emas, mening oyim general*” degan replikasida “*general*” harbiy unvoni metaforik ma’noda qo‘llanib, bevosita harbiy lavozimni emas, balki oiladagi yetakchi, boshqaruvchi hamda asosiy qaror qabul qiluvchi shaxs obrazini anglatadi. Mazkur holat harbiy terminning kundalik nutqda semantik kengayish asosida ko‘chma ma’no kasb etishini ko‘rsatadi. Demak, harbiy unvonlarni ifodalovchi terminlar lingvomadaniy jihatdan faqat harbiy iyerarxiyani bildiruvchi terminologik birliklar bilan cheklanib qolmay, balki kundalik nutqda ham metaforik mazmun kasb etib, turli ijtimoiy va madaniy munosabatlarni ifodalovchi vosita sifatida qo‘llanishi mumkin. Bu holat harbiy terminologiyaning lingvomadaniy imkoniyatlari keng ekanligini hamda uning jamiyat tafakkuri, madaniy tasavvurlari va ijtimoiy munosabatlar modeli bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu

²⁸ <https://www.youtube.com/playlist?list=PL3bxqNC8P2mHxr1IzOoOHJpq4Cy2vdu8p>

nuqtai nazardan ingliz va o'zbek tillaridagi harbiy unvon terminlari nafaqat harbiy tizimga oid nominativ birliklar, balki harbiy madaniyat, iyerarxiya, intizom va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy belgilar sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А.Мадвалиев таҳр. ост. — Тошкент: “Ўзбекистон нашриёти” давлат унитар корхонаси, 2020.
2. Dadaboyev H. O'zbek harbiy terminologiyasi — Toshkent: Shahhof 2021.
3. Golden, An Introduction to the History of the Turkic Peoples, Otto Harrassowitz, 1992, pp. 121–123; Black, Eighteenth-Century Britain 1688–1783, Palgrave Macmillan, 2001.
4. Sinor, The Cambridge History of Early Inner Asia, Cambridge University Press, 1990.
5. Qodiriy A. *O'tgan kunlar*. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
6. Ойбек. Қуёш қораймас. Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси. Мукаммал асарлар тўплами. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт. 1977.